



## BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Muhammadiyah G.Z.*

*Termiz davlat pedagogika instituti boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi  
2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Norbo‘tayev X.B.*

*Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim  
fakulteti dekani pedagogika fanlari doktori (DSc.), professor.*

**Tayanch so‘zlar:** ekologik, madaniyat, metod, shakl, o‘quvchi, dars, ta‘lim, tushuncha.

**Ключевые слова:** окружающая среда, культура, метод, форма, учащийся, урок, образование, концепция.

**Key words:** ecological, culture, method, form, student, lesson, education, concept.

Mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi uzluksiz ta‘lim tizimining tarkibiy qismi sifatida rivojlantirilmoqda. Shuningdek, “Uzluksiz ekologik ta‘lim konsepsiyasi” amaliyotga tatbiq etilgan, ekologik ta‘lim mazmuni takomillashtirilib, moddiy-texnik bazasi modernizatsiya qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Atrof tabiiy muhit, aholi sog‘ligi va genofondiga putur yetkazuvchi ekologik muammolarning oldini olish” dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Binobarin, ekologiyani ko‘p tarmoqli soha sifatida baholash, ekologiyaning axloqiy mohiyati va zamonaviy mazmuni, innovatsion tafakkur yuritish va yangicha yondashuvlarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etishdan iborat.

Inson tabiatning bir bo‘lagi sifatida har doim ongli faoliyatni tashkil etib kelgan holda, unga bo‘lgan munosabatini ratsional yondashuv asosida amalga oshirgan. Shu nuqtai nazardan “ekologik madaniyat” tushunchasi muomalaga kiritilib, inson va tabiat munosabatlari inson omillari asosida qaror topgan. Bu esa o‘quvchi ruhiyati, tabiat go‘zalligi bilan hamohang barqarorlik kasb etishini



allaqachon anglab etganligidan dalolat beradi. Ekologik madaniyatning asosiy xususiyatlaridan biri, tabiiy munosabatlarga inson aralashuvi salbiy oqibatlariga olib kelishini oldindan bashorat qilish imkoniyatini yuzaga keltirgan.

Ekologik madaniyatni o'zlashtirgan o'quvchi o'z faoliyatini atrof-muhitni oqilona boshqarish talablariga bo'ysundiradi, atrof-muhitni yaxshilash to'g'risida g'amxo'rlik qiladi, uning yo'q qilinishiga va ifloslanishiga yo'l qo'ymaydi hamda atrof-muhitga inson tomonidan yetkaziladigan zararlarni kamaytirish borasida zaruriy ishlarni amalga oshiradi. Albatta bu jarayon inson salomatligi va psixikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib qolmasdan, boshqalarni ham bu borada sog'lom fikr yuritishga undaydi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar atrof-muhitning insonga psixologik ta'siri juda kam miqdorda qaratilgan. Aslida tabiiy muhitning o'zgarishi bevosita inson, uning psixologiyasi, xulq-atvori, xarakter xususiyati, tafakkur tarzi, yon atrofni idrok qilish, qolaversa fiziologiyasida ham o'zining ta'sirini ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, ekologik madaniyat va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish tushunchasi maktab yosh davri asosiy yetakchilik qilishi va shaxsni shakllantirishda hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Ushbu yoshda shakllangan asosiy qarashlar barqaror bo'lib, ko'p yillar davomida ularning asosiy xususiyatlari saqlanib qoladi. Jumladan, A.G.Ivanov, M.G.Berezina, V.P.Malsev, I.V.Pirumovalar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra oliy asab faoliyati fiziologiyasi o'quvchilaridagi neyrodinamik jarayonlarning o'ziga xosligini isbotlagan.

Ushbu masalada tadqiqot olib borgan L.I.Bojovichning ilmiy-nazariy qarashlarida o'quvchilarda neoplazmalarni qayd etilganligi haqidagi qarashlar ilgari surilgan. Ekologik ta'limning subyekti sifatida maktab o'quvchisining xususiyatlarini aniqlashda L.I.Bojovich konsepsiyasini muhim uslubiy yondashuv sifatida e'tirof etish mumkin. Unda bolaning yoshga bog'liq psixologik xususiyatlari individualligi va u yosh bosqichidagi o'ziga xosligi bilan belgilanishi ta'kidlanadi.

Ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini, avvalambor, shaxsning ma'naviy sohasiga ta'siri, uning yuksalishi, aqliy taraqqiyotni tashqi va ichki rivojlanish kombinatsiyasi bilan izohlanadi. Ushbu ichki munosabat o'quvchining tegishli yosh bosqichidagi aqliy rivojlanish dinamikasi va psixologik shakllanishini belgilaydi. Shuningdek, har bir yosh bosqichi oddiy individual xususiyatlar to'plami bilan emas, balki o'quvchi shaxsining shakllanishiga asos bo'luvchi rivojlanish tendensiyalari mavjudligi bilan tavsiflanadi.



Shaxsning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini shakllanishining psixologik-pedagogik faktorlari bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, jumladan, N.D.Sokolova maktab o'quvchilarini tarbiyalashga insonparvarlik yondashuvini rivojlantirib, ular "dunyodagi o'z o'rnini" aniqlashtirishi va belgilab olishi zarurligini ta'kidlaydi. Bunda eng avvalo shaxsdan ongli ravishda qo'yilgan maqsadlar va qabul qilingan qarorlar asosida mustaqil harakat qila oladigan subpektga aylanish talab etiladi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, zamonaviy ekologik ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishda insonning ta'lim faoliyatidagi o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazarda olib qaraydigan bo'lsak o'qituvchining ta'lim - tarbiya tizimida xususan, atrof-muhit sohasida markaziy shaxs hisoblanadi. Ta'limning maqsadlari qanchalik aniq bo'lmasin, uning to'liq mazmuni, ta'lim usullari, vositalari va shakllari o'ziga xos hamda xilma-xildir. Biroq ular o'z-o'zidan tabiatga g'amxo'rlik qilayotgan yosh avlodni tarbiyalashda muvaffaqiyatni ta'minlay olmaydi.

Shuning uchun atrof-muhitni muhofaza qilishning murakkab va xilma-xil muammosi va uning barcha tarkibiy qismlarini biladigan, yosh avlod shaxsini shakllantirishga ijobiy psixologik ta'sir ko'rsatadigan, o'qitishda o'ziga xos yondashuvga ega bo'lgan, kompetent kadrlarga bo'lgan ehtiyoj borgan sari ortib bormoqda.

Ushbu masalani tadqiq etgan V.I.Medvedev va A.A.Aldashovalar ekologik ong konsepiyasi insonning tabiatdagi obyekt va jarayonlarga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan, tabiiy o'zgarishlarga olib keladigan inson bilim va harakatlarining barcha sohasini qamrab olishi kerak, deb ta'kidlaydi.

V.A.Skrebes ekologik ongning asosiy xususiyatlarini hamda tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatgan holda uning ma'lum belgilarini tavsiflashga harakat qilgan va quyidagilarga ajratgan:

- birinchidan, ongning tabiiy olam obyektlari va hodisalari bilan markaziy tizimga asoslangan;
- ikkinchidan, ma'lum bir jamiyat va avlod uchun xarakterli bo'lgan tabiat bilan ekologik ta'sir o'tkazish standartlari;
- uchinchidan, muayyan madaniy va tarixiy tajribaning tabiiy kombinatsiyasi ma'lum bir toifadagi odamlar tomonidan singdirilgan degan qarashni ilgari surgan.

Ushbu tajriba ijtimoiy guruhda qabul qilingan va dunyo bilan o'zaro munosabatlarning ramziy funksiyalari orqali amalga oshirilgan. Muallif ekologik ongning asosiy xususiyat va belgilari sifatida quyidagilarni e'tirof etadi: o'zini aks ettirish, alomatlar, ramzlar, shu jumladan, insonning tabiiy



dunyoni idrok etishning og‘zaki vositalari yordamida vositachilik qilishi, ekologik ongning ijtimoiy tabiati, jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar, me‘yorlar hamda shakllangan an‘analar bilan bog‘liq ichki dialog va boshqalar.

Shaxsning yo‘nalishini hisobga olgan holda shuni ta‘kidlash kerakki, motivlar ehtiyojlar asosida paydo bo‘ladi, rivojlanadi va shakllanadi. Ehtiyojni rag‘batlantirish va motivasiya manbai sifatida o‘rganayotganda, faqat ongli ehtiyojlar motivasiya asosida yotishini hisobga olish kerak, chunki ongsiz ehtiyojlar jalb qilish holati uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Insonni faoliyatga undovchi kuch nafaqat uning o‘zi, balki unga bog‘liq bo‘lmagan ehtiyojlar bo‘lishi mumkin.

Motivasiya darajasi aniq bir shaxsning motivlarida ijtimoiy ehtiyojlarning qay darajada aks etishi bilan farqlanadi. Bugungi kun insoniyatining eng muhim va zaruriy ehtiyojlaridan biri bu - yashab qolish va tiriklik manbai bo‘lgan tabiatni asrashdir. Bu jarayon insondan ongli faoliyatni talab qilgan holda muhim va hayotiy ehtiyojga aylangan barcha harakatlar tizimini ratsional qarashlarga muvofiqlashtirishni talab etmoqda.

Ushbu masalada ilmiy nuqtai nazardan yondashgan tadqiqotchilar L.M.Makarova, D.S.Deryabo va V.A.Yasvinlarning fikriga ko‘ra, ekologik ongning muhim xarakteristikasi bu tabiiy obyektlarni subyektiv idrok etishdir. Voyaga etgan yoshlarda tabiatga subyektiv munosabatlarning shakllanishi ma‘lum qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lib, ba‘zi mualliflar hozirgi sharoitda uni cheklangan vaqt ichida shakllantirish amalda mumkin emas deb hisoblashadi. Shuning uchun bu sohada strategik ishlarni yoshlikdan boshlash kerak, sababi yoshlar ongida tabiatga nisbatan kattalar singari antroposentrik va texnokratik munosabat shakllanmagan bo‘ladi.

Shuningdek, bolada bu yoshda atrof-muhitga nisbatan hissiy-emotsional hamda axloqiy va ekologik munosabat asoslari shakllanadi, uning ongida tabiat bilan bir butunlik tushunchasi qaror topib u bilan ajralmas yaxlit bir butunlikni his qilib yashaydi.

Shu tufayli yoshlarda ekologik ongni rivojlantirish, ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatga nisbatan hamdardlik va hurmatni tarbiyalash, ayrim ekologik muammolarni amaliy hal qilishda namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning ekologik ongini shakllantirish-tabiatni, uni himoya qiladigan va yaratadigan insonlarga nisbatan ongli ravishda to‘g‘ri munosabatni shakllantirish asosida amalga oshirilish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinflarda ekologik ta‘lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo‘shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha



avaylab asrab kelganligi, O'zbekistonni yangilanishning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishining kamol topishiga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir.

Demak, o'quvchilarga ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mamlakat rivojlanishi va taraqqiy etishi bilan bog'liq masalalar yuzasidan tushunchalar berishda "ekologik madaniyat" tushunchasining mazmun-mohiyatini asoslab berilishi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan turmush tarzining tabiiy muhit hodisalari bilan bog'liqligi, o'quvchining kundalik hayotiga singishi hamda aqliy faoliyat va shaxsini rivojlanishidagi ta'siri har doim e'tiborda bo'lishi lozim. Sababi ekologik omillar inson aqliy rivojlanishining har qanday bosqichida etakchi manba bo'lib xizmat qilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Har bir tashqi ta'sir va omillar shaxsning ichki hissiy munosabatlar o'zgarishlarini keltirib chiqaradi. Unda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari tashqi omillarning ta'sirini o'ziga xos tarzda aks ettiradi va faoliyatida ma'lum reaksiyalarni yuzaga keltiradi.

Ushbu omillarni hisobga olgan holda bizning qarashimizcha atrof-muhit hodisalaridan psixikaga maqsadli ta'sir qilish vositasi sifatida ta'lim jarayoniga qo'llashning omtipal variantlarini ishlab chiqish davr talabi sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir. Uning yordami bilan o'qituvchi o'quvchilarning ko'p qirrali faolligini rag'batlantiradigan tashqi sharoitlar bilan bog'liq o'quv tizimini shakllantiradi. O'quv faoliyatda ushbu shartlar o'quvchi va tabiatni bog'laydigan, tabiatga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil qiluvchi munosabatlarning mukammal elementlariga aylantiriladi, o'qituvchi uning yordami bilan maktab o'quvchilarini ongiga ta'sir qiladi. Buning uchun:

- o'quvchi shaxsini rivojlanishga ta'sir etuvchi atrof-muhit bilan bog'liq tashqi va ichki holatlarining kombinatsiyasini ta'lim bilan bog'lash;
- o'quvchining tegishli yosh bosqichidagi aqliy rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi tashqi ta'sirlarni psixologik omillarni diagnostika qilish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish maboynida o'quvchilarda tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklari haqida dastlabki tushunchalar hosil bo'ladi. Mashg'ulotlarni ochiq osmon ostida o'tkazish o'quvchilarni tabiat haqidagi faktlarni bir qadar tinchlantiradi va boyitadi. Chunki, kitobda o'qigan daraxtning tanasiga qo'l qo'yishi, sur'atini ko'rgan gulning muattar hidini to'yishi yoki qayrilgan butaga tirgovich qo'yishi, iliq nurlari bilan erkalayotgan quyosh orqali o'quvchilar tabiat bu ona ekanligini to'liq his qilishi ya'ni ekologik madaniyatni shakllanganligidan dalolat beradi.



### Adabiyotlar:

1. Астафьева Л.С. Формирование экологической культуры студентов технических колледжей. Дисс. ... канд. пед. наук. - М. 2001. 205 с.
2. Гафуров М.Т. Формирование эколого-экономических знаний учащихся процессе изучения естественно-географических дисциплин. Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Йошкар-Ола, 2012. - 24 с.
3. Вичканова О.Ф. Формирование опыта экологической деятельности у младших подростков в учреждении дополнительного образования. Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Хабаровск, 2012.- 25 с.
4. Jumanova F.U. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish (geografiya ta'limi misolida): ped.fan.nom. diss.... avtoref. Toshkent, 2010.-22 b.
5. Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: p.f.d., diss.- T.: O'zPFITi, 2005. - 265 b.

### РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang'ich sinflarda ekologik madaniyatni shakllantirish asosida o'quv jarayoni sifatini oshirish, uning mazmuni, shakl va metodlari, nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyati, o'quvchilarga tabiiy fanlarga oid materiallarni o'qitishda ekologik talim-tarbiyani uzviylikda tashkil qilish orqali boshlang'ich sinf oquvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish infratuzilmasi keltirilgan.

### РЕЗЮМЕ

В статье представлено повышение качества образовательного процесса на основе формирования экологической культуры в начальных классах, ее содержание, формы и методы, теоретическая, практическая и воспитательная значимость, а также формирование инфраструктуры экологической культуры у младших школьников. путем организации экологического образования при преподавании естественнонаучного материала.

### SUMMARY

In the article, on the basis of the formation of ecological culture in primary classes, the quality of the educational process is increased, its content, forms and methods, theoretical, practical and educational significance, and the organization of ecological education in the teaching of natural science materials to students. The infrastructure for forming environmental culture in middle school students is presented.